



## HOMILADORLIKDA DIAGNOZ QO'YISH USULLARI

*Sergeli Abu Ali Ibn Sino nomidagi Jamoat salomtligi texnikumi o'qituvchisi  
Sattorova Dilafroz Jabbor qizi*

**Annotatsiya:** *Homiladorlik davrida diagnoz qo'yish uchun ayollar anamnez yig'ish orqali, obyektiv va qin orqali tekshiriladi. Anamnez yig'ish homilador ayol bilan suhbatlashish orqali amalga oshiriladi. Obyektiv tekshirganda ayolning tashqi tuzilishiga ahamiyat beriladi. Qin orqali tekshirganda homilador ayolni mahsus kresloga o'tqizib ko'zdan kechiriladi.*

**Kalit so'zlar:** *Diagnoz, anamnez, kresol, ko'zgu, obyektiv.*

**Аннотация:** *Для диагностики беременности проводится осмотр женщины путем сбора анамнеза, объективного и вагинального. Анамнез собирается в ходе беседы с беременной женщиной. При объективном осмотре обращается внимание на наружные структуры женщины. При вагинальном осмотре беременную женщину усаживают в специальное кресло и осматривают.*

**Ключевые слова:** *Диагноз, анамнез, кресол, зеркало, линза*

**Abstract:** *To diagnose pregnancy, women are examined by taking a history, objectively and vaginally. Anamnesis is taken by talking to the pregnant woman. During an objective examination, attention is paid to the external structure of the woman. During a vaginal examination, the pregnant woman is placed in a special chair and examined.*

**Key words:** *Diagnosis, anamnesis, cresol, mirror, lens.*

Anamnez yig'ish ya'ni suhbatlashish orqali homiladorlikda, tug'ishda yoki homila taraqqiyotida ro'y berishi mumkin bo'lgan kasalliklarni oldindan taxmin qilish va uni oldini olish mumkin. Bu esa davolash choralarini o'z vaqtida ko'rishga



va homiladorni muntazam kuzatib borish imkonini beradi. Anamnez yig'ish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- Familiyasi, ismi, otasining ismi
- Turar joyi, bolalik va o'smirlikda yashagan sharoiti
- Yoshi

Homiladorlik davrida obyektiv tekshirish homilador ayolni ko'zdan kechirish orqali amalga oshadi. Eng birinchi navbatda homilador ayolni bo'yi o'lchanadi. 145 sm dan past bo'lsa, unda chanoq tor bo'lishi va tug'ish jarayoni qiyin bo'lishi mumkin. Ayolning tana yuzasi (terisi) tozami, toshmalar yo'qmi, yuzida, yuqori labi ostida, sut bezi so'rg'ichi atrofida, qorin devorining oq chizig'i sohasida qoramtir dog'lar bor-yo'qligini tekshirish kerak. Sut bezlarining to'lishgan

to'lishmagani ham ko'riladi. Bu belgilar homiladorlikka xos va ayolning bo'yida bo'lganiga taxmin qilsa bo'ladi.

Qin orqali tekshirish uchun tekshirishdan oldin qovuq bo'shatiladi. Tekshirishda yaxshisi ayolni chalqancha yotqizib, tizza bo'g'imlarini bukib, oyoqlari orasi ochiladi. Tekshirishdan oldin shifokor qo'lini tozalab yuvib, steril rezina qo'lqop kiyadi. Tekshirishda jinsiy a'zolarining tashqi yuzasini, chotni, to'g'ri ichak teshigi atrofini ko'zdan kechirib, biror patologik o'zgarish boryo'qligi aniqlanadi. Keyin ginekologik ko'zgul yordamida bachadon bo'ynini ko'zdan kechiradi.

## FOYDALINGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Akusherlik va ginekologiya" - Ya.N. Allayorov (2017)
2. Akusherlik va ginekologiya darsligi" - Toshkent davlat tibbiyot universiteti (TTA)
3. Shukurov.F.I, Nigmatova.G.M "Akusherlik va ginekologiya" Toshkent-2022